



TRIPANOZOMA KELITIRIB CHIQARADIGAN KASALLIKLAR VA UNING TURLARI.

Asliddin Zaynobiddinov Sirojiddin o'g'l

Andijon Davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yonalishi, 1-kurs talabasi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada odam va hayvonlarda parazitlik qiluvchi kinetoplastidalar vakili tripanozomaning zararli xususiyatlari va yuqish yo'llari haqida qisqacha malumot berilgan.

Kalit so'zlar:Parazit, kinetoplastidalar, trypanosoma, Se-se, kinetoplast, Glossina morsitans, G.palpalis, qon, limfa, og'ir uyqu.

Аннотация: В статье представлен краткий обзор вредоносных свойств и путей передачи трипаносом — представителя кинетопластид, паразитирующих на человеке и животных.

Ключевые слова: Паразит, кинетопластиды, трипаносома, Se-se, кинетопласт, Glossina morsitans, G. palpalis, кровь, лимфа, тяжелый сон.

Abstract: The article provides a brief overview of the harmful properties and transmission routes of trypanosomes, a representative of kinetoplastids that parasitize humans and animals.

Key words: Parasite, kinetoplastids, trypanosome, Se-se, kinetoplast, Glossina morsitans, G. palpalis, blood, lymph, heavy sleep.

Parazit kinetoplastidlar orasida odam va umurtali hayvonlar gonida parazit yashovchi tripanozomalar (Trypanosoma) urug'i vakillari ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Ulaming tasmaga o'shash yassi tanasi 20-70 mkm keladi. Oldingi tomonidajoylashgan bitta xivchini tanasining yonidan orqaga qarab yo'nalgan. Xivchin yupqa to'lqinlanuvchi membrana

yordamida ektoplazmaga tutashgan. Bazal tanachasi (kinetoplast) endoplazmada xivchinning asosida joylashgan. Uyqu kasali tripanozomasi (Trypanosoma rhodesiense)

Afrikaning tropik qismida yashovchi xalqlarda og'ir uyqu kasalini keltirib chiqaradi(1)

Tripanozoma qon plazmasida va limfa suyuqligida yashaydi. Keyinchalik orqa miya suyuqligiga o'tib oladi. Kasallanish alomatlari isitmalashdan boshlanadi va sekin-asta

organizm og'ir xastalikka chalinadi. Kasal kishi ko'p uxlaydi va juda ozib ketadi; davolash choralari ko'rilmaganda halok bo'ladi.(2)

Uyqu kasali tripanozomasi tabiatda yovvoyi hayvonlardan antilopalar gonida uchraydi.

Tripanozomani se-se pashshasi (Glossina morsitans, G.palpalis) antilopalardan odamlarga yuqtirishi aniqlangan. Pashshalar ichagida tripanozoma bo'yiga bolinib ko'payadi va tana suyuqligi orqali awal uning so'lak bezlariga, so'ngra hartumiga o'tib oladi. Pashsha so'lagidan qonga otgan parazitlar qon plazmasida yana jinssiz bolinib ko'payadi. Parazit hayvonlarga ziyon keltirmaydi. Antilopalar kasallikning tabiiy manbasi, se-se pashshasi esa kasallik qo'zg'atuvchining tarqatuvchisi hisoblanadi. (2)



Xulosa qilib aytganda ushbu kasallik bilan kasallangan bemorlarni davolash, kasallikning dastlabki bosqichlarida samarali hisoblanadi. Shu sababdan, se-se pashshalari sezilganda imkon qadar erta laboratoriya tashxisi o'tkazish zarur. Kasallik aniqlangandan so'ng, bemorni kasalxonaga yuborish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Umurtqasizlar zoologiyasi.

O.Mavlonov, Sh. Xurramov, X. Eshova

O'zbekiston Milli Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2006

2) Zoologiya

S. Dadayev, O.Mavlonov Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2008